

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Sportda innovatsion saralash texnologiyasining dasturiy ta‘minotini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi tarbiyalanuvchilari barmoq izi shakllari va o‘lchamlarining aniq miqdoriy tavsiflari skanerlash asosida olinadi; - barmoq izi shakllari va o‘lchamlarining aniq miqdoriy tavsiflarini samarali tashxislash mexanizmlari va dinamikasi asoslanadi; - aniq tibbiyot doirasida olingan tarbiyalanuvchilarning barmoq izlarini diagnostik samaradorligini tez va aniq baholashga imkon beradigan tekshiruv algoritmlari shakllantiriladi; - barmoq izi shakllari va o‘lchamlari o‘rganiladi hamda tarbiyalanuvchilarning fiziologik imkoniyatlari va jismoniy sifatleri foizda aniqlanadi; - olingan natijalar tarbiyalanuvchilarning jismoniy sifatleri va fiziologik imkoniyatlari darajasining dinamik markeri sifatida olinadi; - tekshirishda ishlatiladigan Barmoq izini skanerlash va tahlil qilish orqali yoshlarni sport bilan shug‘ullanishining dastlabki kunlarida ham jismoniy imkoniyatlarini baholash imkonini beradi; - barmoq izini skanerlash va tahlil qilish orqali yoshlarni sport turlariga saralash texnologiyasining dasturiy ta‘minoti ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Sport vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ichki ishlar vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.